

CHIRCHIQTONGI

**Toshkent viloyati
Chirchiq shahar
hokimligining
ijtimoiy-siyosiy gazetasi**

**2025-yil, 14-fevral JUMA
6-son (10253)**



**14 ФЕВРАЛЬ - ЗАҲИРИДДИН
МУҲАММАД БОБУР ТАВАЛЛУД
ТОПГАН КҮН**

5


БУЮКЛАР ХОТИРАСИГА ЭҲТИРОМ

Куни кеча шаҳримиз марказида жойлашган Алишер Навоий ҳайкали атрофи ҳар қачонгидан ҳам гавжум бўлди. Шоир таваллуди муносабати билан шаҳар жамоатчилиги вакиллари ва илм намоёндалари ёдгорлик пойига гулчамбар қўйди.

Тадбирда Тошкент вилояти ва Чирчиқ шаҳар ҳокимлиги, нурунийлар, маҳалла фаоллари, қатор ташкилот, идоралар жамоалари, таълим муассасалари, ҳарбийлар, ижод аҳли ҳамда талаба-ёшлар иштирок этди.

Гулчамбар қўйиш маросимидан сўнг "Кимёгарлар" маданият саройида адабий-маърифий тадбир ташкиллаштирилди.

Тадбир давомида беназир шоирнинг бой ва серқирра ижодий мероси, ибратли ҳаёт йўли, асарларида улуғланган эзгу ғоялар халқимиз, ёш авлод тарбиясида катта аҳамиятга эга эканлиги таъкидланди. Шунингдек, адабий кечада Алишер Навоий ҳамда Заҳириддин Муҳаммад Бобур шеърларни тараннум этувчи шеърлар, икки буюк адиб қаламига мансуб ғазаллар ўқилди. Ибратли саҳна кўриниши намойиш этилди. Мумтоз куй-қўшиқлар ва дилрабо рақслар йиғилганларга бир олам завқ улашди.



▼ **Раҳбар минбари**



ИҚТИСОДИЙ СЛОҲОТЛАР ХАЛҚ ШОНЧЕНИ ОҚЛАШГА ҚАРАТИЛГАН

Халқимизнинг фаровон ҳаёт кечириши ва Янги Ўзбекистонимизнинг гуллаб-яшнаши бевосита маҳаллий бюджетларнинг шакллантирилиши билан узвий боғлиқ. Ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришга йўналтирилган дастурларнинг ҳар бир бандида белгиланган вазифалар, чора-тадбирларнинг ижроси, унинг аҳоли турмуш тарзида бераётган натижалари ислохотларимизнинг руҳи ва мазмунида яққол ўз аксини топиб бормоқда.

2

КЎЗНИ ЯШНАТГАН "МУҲАЙЁ, СУРАЙЁ, РАЪНО, МУҚАДДАС"ЛАР – ҚАНИСИЗ?



2



ФАОЛ ВА ТАШАББУСКОР АЁЛЛАР



Куни кеча "Махам-Чирчиқ" АЖда "Аёл – ислохотларимизнинг фаол иштирокчиси" мавзусида семинар ташкил этилди.

Тадбирдан кўзланган асосий мақсад жамиятда фаолият кўрсатаётган хотин-қизларни 2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегияси доирасида олиб

борилаётган ишлар юзасидан фикр алмашиш, фаол хотин-қизларни тақдирлашдан иборатдир.

Семинар давомида "Ўзкимёсаноат" АЖ бошқаруви раиси маслаҳатчиси С. Абдурахманова ўз тақдироти билан иштирок этиб, соҳада амалга оширилаётган ишлар ҳақида маълумот берди.

Шунингдек, "Аммафос-Махам" АЖ бошқаруви раисининг маслаҳатчиси Р.Абдукадирова, Халқ депутатлари Тошкент вилояти кенгаши депутаты Л. Филипова, Халқ депутатлари Чирчиқ шаҳар кенгаши депутаты М. Закирова ўз фикр ва мулоҳазаларини билдиришди.

Семинар сўнгида корхона фаолиятининг турли соҳаларида фаол иштирок этаётган хотин-қизларга ташаккурнома ва эсдалик совғалари топширилди.

Моҳира ШОРАЙИМОВА,
"Махам-Чирчиқ" АЖ Оила ва хотин-қизлар маслаҳат Кенгаши раиси



ТАЪЛИМ ЗИЁСИ

Азиз муштарийлар, газетамизнинг бу галги сонида Чирчиқ давлат педагогика университетининг "Таълим зиёси" газетаси 3 ва 4-саҳифада эълон қилинмоқда. Газета ичида газета тарзида чоп этилаётган мазкур рўзномада университет ва талабалар ҳаётидан бериб бориладиган лавҳалар ҳамда иқтидорли ёшларнинг ижод намуналари билан танишишингиз мумкин.



3-4

ИҚТИСОДИЙ СЛОҲОТЛАР ХАЛҚ ШОНЧИНИ ОҚЛАШГА ҚАРАТИЛГАН

2024 йил якунларига кўра, маҳаллий бюджетнинг даромад қисми амалда 118,30 млрд сўм миқдорда, яъни режага нисбатан 115 фоизга бажарилгани, харажатлар эса режага нисбатан 104 фоизга адо этилгани шахримиз иқтисодиёт тармоқларининг салоҳиятидан яққол далолат бериб турибди.

Дарҳақиқат, шахримиз ҳудудларини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш дастурларини амалга ошириш бўйича аниқ мақсадга йўналтирилган ишлар жадал олиб борилаётганидан далолат беради. Жаҳонда юз бераётган салбий тенденцияларга қарамай,

(Давоми. Боши 1 - саҳифада)

молия, иқтисодиёт тармоқларида бу каби барқарорликка эришишнинг ўзи бўлмагани, унинг ортида соҳа ҳодимларининг баракали меҳнатлари тургани ҳам алоҳида эътироф этиб ўтиш керак.

Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, ўтган давр мобайнида айниқса, солиқ сиёсатида олиб борилган ислохотлар ўз самараларини кўрсатди. Солиқ тизими сезиларли даражада соддалаштирилди. Натижада, тушумлар ҳам ошиб борди. Қолаверса, давлат бюджети даромадлари кўрсаткичлари асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнозидан ва солиқ сиёсатидаги кўзда тутилган ўзгартиш ва талаблардан келиб

чиққан ҳолда шакллантирилганини ҳам таъкидлаб ўтмоқчимиз.

Барча соҳаларда бўлгани каби бюджет ҳам йил сайин давр ўзи олдимишга қўяётган талаблардан келиб чиқиб, тизимга янгиланишлар кириштириш, ислохотларни янада чуқурлаштириш вазифаларини ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқда. Шундан келиб чиқиб, Чирчиқ шаҳрининг бу йилги маҳаллий бюджети иқтисодий фаолликни ошириш ҳисобига аввалгилардан тубдан фарқ қилиши кўзда тутилмоқда. Халқ депутатлари шаҳар кенгаши Чирчиқ шаҳар маҳаллий бюджетининг 2025 йилги даромадларини 115,2 миллиард сўм ва харажатларини ҳам

ана шу ҳолатларга мутаносиб равишда 115,2 миллиард сўм миқдорда тасдиқлагани фикримизнинг исботидир. Маҳаллий бюджетнинг шахсий ғазна ҳисоб-варағида турган бюджет маблағларининг йўл қўйилган энг кам миқдори 579,4 млн сўм этиб белгиланди.

Шаҳар маҳаллий бюджети захира жамғармаси маблағларини амалдаги бюджет қонунчилигига мувофиқ, бюджет тизими шакллантирилаётганда олдиндан назарда тутиб бўлмайдиган харажатларни, шунингдек, ижтимоий-иқтисодий беқарорлик юзага келган вазиятларда амалга ошириш зарур бўлган тадбирларни молиялаштириш учун йўналтириш кўзда тутилган.

Бюджет даромадларини асосий манбаси бевосита

солиқ тушумлари эканлиги ҳаммага маълум. Шундан келиб чиқиб, маҳаллий даромадларнинг асосий прогноз кўрсаткичлар фойда солиғи 115 230 150 минг сўм, айланмадан олинган солиқ 23671000 минг сўм, жисмоний шахслардан олинган солиқ 11212840 минг сўм, якка тартибдаги тадбиркорлар учун жисмоний шахслардан олинган солиқ 4518000 минг сўм, акциз солиқлари эса 22237800 минг сўм этиб белгиланди. Шу билан бирга, юридик шахсларнинг мол-мулкига қаратилган солиқ 5772060, жисмоний шахслардан шу мақсадлар учун олинган солиқ 13352000 минг сўм, жисмоний шахслардан олинган солиқ 9942450 минг сўм, сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқлар 9975000 минг сўмни ташкил этади. Давлат мул-

ки бўйича ижара тўловлари эса 752 минг сўм этиб белгиланган.

Маҳаллий бюджетдан ҳудудий бюджет маблағлари тақсимловчиларига ажратилган маблағларнинг чекланган миқдорида тўхталадиган бўлсак, Мактабгача ва мактаб таълими бўлимига 39457779 минг сўм харажатлар учун ажратилиши кўзда тутилганини таъкидлаб ўтмоқчимиз. Бунда мактабгача таълим ташкилотларининг давлат ва оилавий турларининг ортиши бу соҳада давлат хусусий шерикчилики янада ривожлантириш ҳисобига болаларнинг мактабгача таълим билан қамровини ошириш ҳам харажатларда иноватга олинганини қайд этиш лозим.

Худди шу каби соғлиқни сақлаш, маданият, спорт, ободонлаштириш, қишлоқ хўжалиги ва бошқа кўплаб соҳа ривожини учун маблағлар ажрати-

лиши кўзда тутилмоқда. Камбағалликни қисқартириш ва бандликни таъминлашнинг ўзига маҳаллий бюджетдан 1515376 минг сўм маблағ йўналтириш белгиланган.

Халқ депутатлари шаҳар Кенгаши томонидан имзоланган "Чирчиқ шаҳрининг 2025 йилги маҳаллий бюджетини тасдиқлаш тўғрисида"ги қарорида ҳудудий бюджет маблағларини тақсимловчилар олдига бюджетдан ажратилган маблағлардан мақсадли ва самарали фойдаланиш, хусусан, иш ҳақи ва унга тенглаштирилган тўловлар, озиқ-овқат, дори-дармон, коммунал хизматлар ҳамда давлат дастурлари учун белгиланган харажатларни биринчи навбатда тўлиқ режалаштирилиши ва ўз вақтида тўланиши, даврий жамланма молиявий ҳисоботларини

тўғри шакллантириш ва ўз вақтида тақдим этилишини назорат қилиш борасида амалга ошириш лозим бўлган вазифалар белгиланган.

Давлатимиз раҳбарининг узоқни кўзлаб олиб бораётган оқилона сиёсати туфайли иқтисодий фаолликни ошириш борасида муайян ижобий натижаларга эришиб келинмоқда. Ҳеч шубҳасиз, "Атроф-муҳитни асраш ва "яшил" иқтисодиёт йили" учун мўлжалланган маҳаллий бюджет маблағлари халқимиз турмуш фаровонлигини янада яхшилаш, таълим, соғлиқни сақлаш, маданий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш каби эзгу мақсадларга хизмат қилади.

**Ғолиб
ҲАМИДОВ,
Чирчиқ шаҳар
Иқтисодиёт ва
молия бўлими
бошлиғи**



КЎЗНИ ЯШНАТГАН

“МУҲАЙЁ, СУРАЙЁ, РАЪНО, МУҚАДДАС”ЛАР – ҚАНИСИЗ?

Ўзбек миллий либослари деганда кўз ўнгимизда атлас, адрас, беқасам каби кўзни қувнатадиган, ёрқин рангли турли-туман нафис ва гўзал матоли кийимлар гавдаланади. Бу либослар жуда ёрқин, чиройли ва қулай бўлиб, бой маданий анъаналаримиз ва турмуш тарзимизни ўзда акс эттирибгина қолмай, унда халқимизнинг минг йиллик ўтмиши, қадимий урф-одатлари, диди ва эстетик қарашлари мужассам.

Шунингдек, ҳар бир халқнинг миллий либосида уларнинг яшаган жойи ва даври, ҳаёти, турмушидаги қувончли ёхуд қайғули кунлари акс этади. Минтақамизнинг иқлими, шарт-шароитларидан, халқимиз эътиқодидан келиб чиққан миллий либосларимиз асрлар давомида шаклланиб келган моддий ва маънавий маданиятимизнинг яққол тимсоли сифатида халқимизнинг ижтимоий келиб чиқиши, ёши, жинси ва феъл-атворини ҳам намойён этган.

Азал-азалдан ўзбек хотин-қизларининг кийим жавонини хонатласу адрасларсиз тасаввур қилиш қийин. Унинг бетакрор кўриниши, нақшлари ҳар қандай фаслда ҳам баҳорий кайфият бахш этади. Кўзларни қувонтириб, кўнглиларни яшнатади.

(Давоми. Боши 1 - саҳифада)

Лекин, бугунги кунда юртимизда миллий либос кийиб, дўппида юрган одамларни топиш амри маҳол бўлиб қолди. Ўзбек аёллари табиий ипакдан тўқилган ўзимизнинг миллий матомиз бўлган атлас ва адрасдан тикилган кийимларни деярли киймай қўйишди. Фақат муҳим тадбирларда, оилавий ва катта байрамларда, тўйлардагина миллий либос кийишни афзал кўрадилар. Ваҳоланки, чет элларда сунъий санонат маҳсулотларидан ишлаб чиқарилган номдор фирмалар брендида мансуб кийимларни кийишга ошиқадилар.

Табиий пахта толасидан тўқилган матолардан тикилган камзул, енгил халат, енгисиз нимча ва мурсак (чопон шаклида бичиб тикилган устки кийим)ларни ўтган асрда аёлларимиз севиб кийишган. Ҳатто,

киш ойларида ичига пахта солиб қавилган бахмал нимча, чопонлар кекса онахонларимизнинг устидан тушмаган. Бундай кийимлар нафақат табиий эҳтиёжни таъминлаган, балки амалий санъат сифатида гўзаллик ва нафисликка йўналтирилган бўлган. Ҳозирги ёшларимизнинг кўпчилиги бу кийимларни кўришмаган ва билишмайдилар ҳам.

Тўғри, бугунги кунда замон шиддат билан ривожланмоқда. Турли бичимдаги кўйлак, кастюмлар, юбка-кофталар хотин-қизлар орасида урф бўлган. Шундай бўлса ҳам азал-азалдан ўзбек аёлларини янада ифбатли, жозибали шарқ аёли тимсолида кўрсатадиган муҳим белгиларидан бири бу – миллий либосларимиздир.

Ҳатто, чет элликлар ҳам энгига атлас ва адрасларимизни, бошларига ўзбек дўпписини кийиб, кўнглида ғурур туйиб, суратларга тушаётган, миллий матоларимиздан тикилган замонавий либослар Европада юртимизда жилаётган, бутун дунёга танилаётган бир пайтда ўзимиз ҳам шу либосларимизни кундалик ҳаётимизда кийишга андиша қилмаслигимиз керак, деб ўйлайман.

хурматини намойиш этмоқдалар.

"Чирчиқ тонги" таҳририяти аъзолари ҳам бу тадбирда қатнашиб, Чирчиқ шаҳар Ободонлаштириш бошқармаси ходимларига миллий урфда тўқилган шарф совға қилдилар. Эрта тонгдан бошланган байрамона муҳит иш унумдорлиги ва муҳлисларимизнинг кайфиятига ҳам таъсир кўрсатди. Асосийси, миллатимизнинг бой маданияти ва умрбоқий қадриятлари жамоамиз бирдамлигида ва ҳамжиҳатлигида ўзига хос тарзда бўлиб ўтди.

– Миллийликни акс эттирган бундай ажойиб совғадан кўнглимиз тоғдек кўтарилди, – дейди ходимлардан бири. – Шундай челленжлар кўпроқ ўтқазилса яхши бўлар эди.

Миллий либосларимиз кўплаб шоирларимизнинг шеърларида, ҳофизларимизнинг кўшиқларида ҳам тараннум этилган. Машҳур фильмларнинг бирида куйланадиган халқ кўшиғида "Ипакмиди, атласмиди кийганингиз-эй", ёки ўтган аср ҳофизининг Ўзбекистон кўчаларини тўлдириб, атлас кийиб юрган қизларга қарата "Муҳайё, Сурайё, Раъно, Муқаддас, кўзим-

ни яшнатиб кийибсиз атлас" ..., деб айтган кўшиғини кекса авлод вакиллари яхши эслашади. Айтмоқчи бўлганим, бугуннинг Муҳайё, Сурайё, Раъно, Муқаддаслари, устингизда атлас ва адрас либослар товганиб турсин. Юртимизга келган чет эллик сайёҳлар Ўзбекистон нафасини туйсин. Ҳар бир гули ва нақшида халқимизнинг бой анъаналарини ҳис этсин. Жозибдор миллий либосларимизни кўз-кўз қилиб, фахр ҳиссини туяйлик.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, кўп асрлар давомида яратилган, шаклланиб келган халқимиз либослари моддий ва маънавий маданиятимизнинг ажралмас бир қисми, аждодларимиз ҳақида сўзлайдиган миллатимиз қиёфаси ва ифтихори ҳисобланади. Шундай экан, ўзбекона кийиниш маданиятини тарғиб қилсак, омалаштирсак – урф-одат ва қадриятларимизни келажак авлод учун сақлаб қолган бўламиз.

Саодат МУСАЕВА

TALIM ZIYOSI

BARCHASI SHU YERDAN UA SHU ONDAN BOSHLANADI

UNIVERSITET
GAZETASI 2-son
Gazeta ichida gazetaTURKIYLARNI BIRLASHTIRGAN
MUTAFAKKIR

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qoʻygan mamlakatimizda ulusning ming yillik tajriba, tushuncha va qadriyatlariga tayangan tengi yoʻq merosimizni oʻrganish maʼnaviyat va maʼrifatning ajralmas qismi sifatida ustuvor vazifaga aylandi. Yangi Uygʻonish davri – Uchinchi Renessans poydevori yaratilayotgan bugungi kunlarda hazrat Alisher Navoiy merosi va gʻoyalarini chuqur oʻrganish va yoshlarga yetkazish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti jamoasi ham ushbu xayrli ishga munosib hissa qoʻshishni asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilab, u zotning asarlarini ilmiy tadqiq etish, qoʻlyozma fondlarida saqlanayotgan yozma merosimizni oʻrganish anʼanalarini davom ettirib kelmoqda.

Buyuk mutafakkir bobomiz tavallud kuni munosabati bilan universitet jamoasi yana bir xalqaro uchrashuvning tashabbuskori boʻldi. Uchrashuvda Turkiya Respublikasining Bashkent universiteti professorlari Abdurahmon Goʻzal va Nihal Yavuzlar oʻz ilmiy chiqishlari bilan qatnashdilar. Allomaning adabiy merosi turkiy olimlar, oʻqituvchi va talabalar tomonidan atroflicha tahlil etildi.

Alisher Navoiyning odamiylik, ezgulik, poklik va halollikni, yurtparvarlik va tinchlikni tarannum etgan asarlari bugungi kunda jahon miqyosida adabiyot muxlislarining mehri va ardogʻida ekanligi haqida soʻz bordi.

TALABALAR HOLIDAN
XABAR OLINDI

Talabalarining nafaqat oʻquv mashgʻulotlarida sifatli taʼlim olishlari, balki darsdan boʻsh vaqtlarini mazmunli oʻtkazishlari, ularning yashash sharoiti va ehtiyojlaridan boxabar boʻlish universitetning barcha masʼul xodimlari oldida turgan asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Universitetda ijarada yoki yaqin qarindoshi bilan yashayotgan har bir talaba haqida toʻliq maʼlumotlar bazasi shakllantirilgan.

Kuni kecha universitet rektori Gʻafurjon Muhammedov ijarada yashovchi talabalarining uylarida boʻlib, ularning yashash sharoiti, kayfiyati, hol-ahvolidan xabar oldilar. Dasturxon atrofida bir piyola choy ustida suhbat qurildi. Shuningdek, talabalarga yongʻin xavfsizligi qoidalariga qatʼiy amal qilishlari toʻgʻrisida tushunchalar berildi.

Suhbat davomida talabalarining fikr-mulohazalari, taklif va muammolari tinglandi. Ularni qiziqtirgan barcha savollarga batafsil javob qaytarildi.

TALABALAR INDONEZIYA SARI

Bugun mamlakatimiz jahon hamjamiyatida integrallashib borar ekan, yoshlarning oʻz ona tilisini qadrlagan holda chet tillarini bilishi ham muhim ahamiyatga ega. Chet tillarini mukammal oʻrganish qanchalar dolzarb ekanligiga yaqinda Indoneziyada boʻlib oʻtgan xalqaro muzokaralarda ishtirok etganimda yana bir bor amin boʻldim.

Indoneziyaga borib UPI (Universitas Pendidikan Indonesia), Negeri Malang kabi nufuzli universitetlar bilan hamkorlik qilish maqsadida tashkillashtirilgan ushbu muzokaralarda shaxsan qatnashish menga juda katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Muzokaralar davomida zimmamga yuklatilgan vazifaga masʼuliyatli yondashgan holda har bir soʻzimni toʻgʻri yetkazib berishga harakat qildim. Ammo biroz hayajon sabablimi muzokaralar paytida ayrim inglizcha soʻzlarni unutib qoʻygan holatlarim ham boʻldi. Lekin menga hozirgi elektron qurilmalar yordamga keldi.

Buning natijasida lugʻat boyligimni hali juda koʻp soʻzlar bilan toʻldirishim lozimligiga yana bir bor amin boʻldim. Soʻzlarni unutib qoʻygan yoki tarjima uchun munosib soʻz topa olmay qolgan paytimda indoneziyaliklarning menga hayrat bilan qarab turgan yuz ifodalari hali ham koʻz oʻngimda turibdi. Indonez va oʻzbek ismlari orasida farqlar bor. Shu sababli ismlarimizni talaffuz qilish biroz qiyin boʻldi va men ular uchun “Miss Mohiy”ga aylandim. Har ikkala tomonning saʼy-harakatlari bilan uchrashuvlar kutilgan darajada oʻtdi. Birgalikda amalga oshiradigan loyihalar va hamkorlik ishlarimiz juda koʻp.

Bu hamkorlik natijasida men oʻzga xalq madaniyati va tiliga eʼtiborli boʻlish, oʻz yurtimizning qadriyatlarini eʼzozlash hamda xalqaro ilmiy jurnallar talabi darajasidagi maqolalar tayyorlash koʻnikmasiga ega boʻldim.

Mohinur SAFIYEVA,
Surdopedagogika yoʻnalishining 2-bosqich magistratura talabasi



Kuni kecha universitetda sport sohasida muvaffaqiyatli natijalar qayd etgan olimpiada chempionlari va sovrindorlari bilan uchrashuv boʻlib oʻtdi.

Jismoniy madaniyat fakultetida tashkil etilgan davra suhbatida dunyo tanigan sportchilar - Vadim Menkov, Ruslan Nuriddinov, Madiyor Saidrahimov, Svetlana Osipova, Ilhom Obidjonovlar oʻzlarining sportga kirib kelish tarixi, erishgan natijalari hamda sportning mashaqqatli yoʻllari borasidagi oʻz taassurotlari bilan oʻrtoqlashdi.

Uchrashuv davomida talabalar oʻzlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

YOSHLAR – GIYOHVADLIKKA QARSHI



Asr vabosi deya atalgan giyohvandlik illati butun dunyoda avj olib, minglab odamlarning yostigʻini quritmoqda, yuzlab oilalarni murakkab vaziyatga solib qoʻymoqda. Shu bois ham bu illatga qarshi kurashish boʻyicha qator ishlar amalga oshirilmogʻda.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 6-mayda “Oʻzbekiston

Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning

noqonuniy aylanmasiga chek qoʻyish orqali ularning aholi salomatligi

va mamlakatimiz genofondiga salbiy taʼsirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni imzolangan edi. Chirchiq davlat pedagogika universitetida mazkur hujjatning mazmun-mohiyati, unda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tadbir boʻlib oʻtdi.

Unda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi masʼul xodimi Bekzod Roʻzimurodov talabalar bilan uchrashdi. Milliy markaz masʼul xodimi

giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga qaram boʻlib qolayotgan yoshlar hamda ularning ayanchli qismati haqida hayotiy misollar keltirib oʻtdi. Notiq oʻz maʼruzasida mazkur illatga qarshi tizimli kurashish -

yoshlarning porloq kelajagi uchun naqadar dolzarb ekanligiga alohida urgʻu berib oʻtdi. Tadbirda giyohvandlik vositalarini isteʼmol qilishning salbiy oqibatlarini namoyon etuvchi videorolik namoyish etildi.

HAUASIMGA HASSA BO'LGANLAR

“Haq yo'lida kim sanga bir harf o'rgatmish ranj ila,
Aylamoq oson emas oning haqqin yuz ganj ila”, deganlarida hazrat Mir Alisher Navoiy qanchalar haq edilar.

Dunyoda shunday kasb egalari borki, ularning haqqini ado etish uchun inson umri kamlik qiladi. Ustozlar haqida qancha gapirsak ham kamdek tuyilaveradi. Quyida mening hayotimda chuqur iz qoldirgan bir inson haqida hikoya qilmoqchiman. Ustozim – Fayziyeva Ubayda Yunusovna! Ularning timsolida O'zbekistonda surdopedagogikaning onasi, jonli ensikloped, tirik tarix gavdalanadi. Ustozim bilan suhbat qurar ekanman, O'zbekistonda imkoniyati cheklangan, ta'limda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limining rivojlanish tarixi, bu sohada duch kelgan qiyinchiliklar haqida gapirib berdilar. Masalan, dastlabki yillarda, ayniqsa, kar bolalar maxsus ta'limi yo'nalishida kadrlar bo'lmagani sababli Rossiyadan O'zbekistonga mutaxassislar yuborilgan va kar bolalar rus tilida o'qitilgan. Ya'ni ular qaysi tilda gapirishi, o'qishining ahamiyati yo'q, imo-ishoraning tili yo'q” – deb hisoblangan. 1971-yilda Ubayda Fayziyeva bunga qarshi chiqib, “O'zbekistonda barcha bolalar qatori kar bolalar ham o'z ona tilida o'qish, yozish va gapirishga haqqi bor” degan fikrni ilgari suradi va respublikamizning barcha maktablarida o'zbek sinflari ochilishiga erishiladi.

Lekin O'zbekistonda maxsus ta'limning sifati talabga javob bermasligi SSSR maorif ministriligi tomonidan ko'p tanqid qilinadi va o'zbek tilida darsliklar va mutaxassislar yo'qligi, eshitish apparatlarining yetishmasligiga urg'u beriladi. Shundan so'ng olima kar bolalar maktab-internatlari uchun “Alifbe”, “Matematika”, “Nutq o'stirish”, “Talaffuz” kabi darsliklar yaratadi. Lekin 1982-yilda yaratilgan darsliklar mustaqillikka erishganimizdan keyingina nashr etiladi. 1990-yilning boshlarida O'zbekistonga jahon

miqyosida imkoniyati cheklangan, ta'limda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limi tajribasi BMTning “Bola huquqlari haqidagi Konvensiyasi” va undagi ta'limda tenglik, inklyuziv ta'lim g'oyasi kirib keldi. Inklyuziv ta'lim bo'yicha ilk qadamlar loyihalar doirasida amalga oshirildi.

2005-yilda “Bolalarga do'stona munosabat muhitidagi maktab” loyihasi doirasida Ubayda Yunusovna rahbarligida 30 nafar defektolog mutaxassislar respublikamizning 6 ta viloyatida 1300 nafar ta'lim bilan qamrab olinmagan alohida ehtiyojli bolalarni aniqlaydilar. Shundan 720 nafar bolalar uchun xalqaro YUNISEF tashkiloti ko'magida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

Butun faoliyati davomida Ubayda Yunusovna kar bolalar maxsus ta'limi, maktab-internatlari, inklyuziv ta'limda boshlang'ich korreksion sinflar uchun 11 nomda darslik, o'qituvchilar va talabalar uchun 12 nomda darslik va qo'llanmalar, ota-onalar uchun 6 nomda metodik qo'llanmalar yaratgan.

Men ustozim Ubayda Yunusovnaning hayot yo'li haqida o'qib-o'rganganimdan so'ng, bu sohaga bo'lgan qiziqishim yanada ortdi.

Ustozim doim “Inson o'zi yaxshi ko'rgan ishini qilsa baxtli bo'ladi”, – deyilar. Men ham o'z qat'iyatim va bilimim bilan bu savobli, shu bilan birgalikda, mashhaqqatli yo'lda o'zimni ko'ra olishga intildim.

Ubayda Yunusovna haqida “ko'zlangan maqsad va unga erishish istagi uni har qanday to'siqlarni yengib o'tib, «shudgorlashga» majbur qildi”, deb yozilgan edi bir maqolada. Ushbu maqolaning davomida bir mushtipar ona tilidan shunday so'zlar yozilgan edi:



“Bu muqaddas ayolga rahmat aytish uchun dunyoda hech qanday boylik yetmaydi. Ubayda Yunusovna qizimga nutq va hayot quvonchini berdi. Robiyaning oddiy darsga borishini, do'stlari ko'p bo'lishini tasavvur ham qila olmasdim. Ona uchun farzandini sog'lom ko'rishidan ortiq baxt yo'q. Sizga ta'zim qilaman, Ubayda opa! Har bir qadamingiz barakali bo'lsin. Oilamiz uchun qilgan yaxshiliklaringizni hech qachon unutmayman”. Bu bitta oilaning ustozga yo'llagan dil izhori edi.

Ayol jismi ila shuncha harakat va g'ayratidan so'ng, savoblar yog'ilayotgan bu ziyo taratuvchisiga agarda Mirtemir tirik bo'lganida “Toshbu”ning ikkinchi qismini yozgan bo'larmidi, deb o'ylab qolaman. Ustozimiz aytadiki: “eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar juda vafoli bo'ladi, ular meni har yili tug'ilgan kunimda yo'qlab kelib, bayram qilishadi, xursand bo'laman – bu

men uchun ta'riflab bo'lmaydigan baxt. Universitetda ham shunday talabam bor, u meni ko'rishga har kuni keladi yoki telefon qiladi”.

Ustoz oilasi haqida gapirar ekan: “bu yutuqlarga erishishimda oilamning yordami juda katta bo'lgan, ular menga ortiqcha tashvish keltirmasdan, o'qib-izlanishim uchun yetarlicha sharoit va imkoniyat yaratib berganlar, men ularni juda yaxshi ko'raman. Sizlar bilan ham bir oilamiz, sizga o'xshagan talaba-shogirdlarim davomchilarim sifatida maydonga chiqishi kerak”, deyilar. Juda ko'p yutuqlarga erishgan bo'lsalarda, “hali niyatlarim juda ko'p va men harakat qilyapman” deyilar doim. Ubayda Fayziyeva yoshlar uchun haqiqiy motivatsiyalar o'chog'idir.

Mirjalol SHARIPOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

HAM TALABA, ONA, PEDAGOG

Yurtboshimiz o'z nutqlarining birida “Oilada bir nafar qiz o'qib, oliy ma'lumotga ega bo'lsa, xonadondagi muhit butunlay o'zgaradi” degan edilar.

Ha, bugungi kun ayoli o'zining orzu-maqсадlariga erishish uchun ko'plab vazifalarni bir vaqtning o'zida bajarishiga to'g'ri keladi. O'qish, uy bekaligi va ish – bu uchta muhim sohani birdek olib borishi uchun esa haqiqatdan ham yuksak metin iroda kerak.

Albatta, buning uchun ayoldan qat'iyatlilik, rejalashtirish va ishini to'g'ri tashkil etish talab etiladi. O'z vaqtida o'qish uchun vaqt ajratish, uy ishlarini samarali tashkil etish va ishdan muvaffaqiyatga erishish uchun muvozanatni saqlash zarur. Mening ham dastlab o'qish va ishlashim uchun turli xil qarshiliklar bo'lgan. Buni uddalay

olmasligimni bot-bot ta'kidlashdi. Ammo, men hammasini eplay olishimni isbotladim.

Bugungi kunda oilada suyuqlik rafiqa, 2 farzandning mehribon onasi, Chirchiq shahridagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tassarrufidagi 30-sonli ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologi, shu bilan birga, Chirchiq davlat pedagogika universitetining Surdopedagogika yo'nalishi talabasi.

Shu kunga qadar bir qator yutuqlarga erishdim. Jumladan, “Innoweek.uz-2023” innovatsion g'oyalar haftaligi doirasida o'tkazilgan “Ideaton-Uzbekistan-2023” ko'rik-tanlovining unversitet bosqichida 2-o'rin sohibasiga aylandim. “G'oyalar generatori” tanlovida esa 1-o'rinni egalladim. Shuningdek, alohida yordamga muhtoj



bo'lgan bolalarni korreksion rivojlantiruvchi 20 ga yaqin metodikalar muallifim va bu metodikalar asosida bog'chamizda samarali natijalarga erishilmoqda.

Bularning barchasiga mehnatlarim, izlanishlarim va o'z ustimda doimiy ishlashim evaziga erishdim. Men bundan doimo o'zimda faxr tuyg'usini tuyaman.

Ayolning muvaffaqiyatli hayoti – bu nafaqat o'zining, oilasining balki jamiyatning ham farovonligi uchun birlashtirilgan kuchdir.

Sevara ULXODJAYEVA,
Surdopedagogika yo'nalishi
3-bosqich talabasi

JONIM FIDO YURTIM UCHUN

Vatan uchun xizmat qilay,
Ko'zlarimdan chaqnar uchqun.
Tuprog'i ham aziz menga,
Jonim fido yurtim uchun.
Temurdayin farzand bo'lay,
Bo'lay men ham xalqqa ustun.
Xizmatida turay sergak,
Jonim fido yurtim uchun.
Mayli bedor o'tsin tunlar,
Chegarada turay har kun.
Qo'riqlayman ona halqim,
Jonim fido yurtim uchun.
Ko'z tegmasin vatanimga,
Doim rizqi bo'lsin butun.
Elyoringda bor bir niyat,
Jonim fido yurtim uchun.

SENI SEVIB HAM BO'LMAYDI

Bedor o'tmoqda tunlarim,
Sevgidan yurak tolmaydi.
Bunchalar ham bevafo san,
Seni sevib ham bo'lmaydi.

Hajringda ko'p kuydirasan,
Tirik sevgim o'ldirasan.
O'zing suymay suydirasan,
Seni sevib ham bo'lmaydi.

Har kun ko'rishim kerak,
Ko'rmasam yurak urmaydi.
Gar hayotim mazmunisan,
Seni sevib ham bo'lmaydi.

Seni sevib bo'lmaydi,
Mehr berib bo'lmaydi.
Lekin bezovta yurak,
Sensizlikka ko'nmaydi.

Elyor TURSUNBOYEV,
Pedagogika fakulteti 4-bosqich talabasi

Ushbu qo'shsahifa Chirchiq davlat pedagogika universitetining
Axborot xizmati
tomonidan tayyorlandi.

O'QISHNI TASHLAB KELGANIMDAN AFSUSLANMAYMAN...

Maktabni tugatganimdan so'ng barcha orzu va maqsadlarimni amalga oshirish uchun aniq rejalar tuzib olgan edim: iqtisodiyotni o'rganish, katta kompaniyalarda ishlash va bir kun kelib, o'z biznesimni boshlash. Shu sababli Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga o'qishga kirdim.

Biroq, hayot men kutgan tarzda kechmadi. Chunki yuragimda boshqa bir orzu bor edi, negadir o'z yo'nalishimdan ko'nglim to'lmadi, qalban boshqa sohani istayotgandek edim. Bir kuni kutubxonada o'tirganimda, bir necha talabalar o'zining yangi loyihalari ustida ishlayotganini aytib qolishdi. Loyiha – bu pedagogika va texnologiyaning uyg'unlashuvi edi. O'sha so'zlar mening qalbimni uyg'otdi. Men bir lahza o'zimni yo'qotdim. Pedagogika!

Men o'zimni butun umr davomida iqtisodiyot bilan bog'lagan edim, lekin ichki

bir ovoz meni pedagogika tomon chorladi. Shundagina men qaror qildim: o'qishni boshqa yo'nalishga, ya'ni pedagogikaga ko'chiraman va alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning hayotda, jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashaman. Bu qarorim ko'pchilikni hayratda qoldirdi. Ota-onam, do'stlarim, hattoki, o'qituvchilarim ham, “Nega iqtisodiyotdan chiqib ketmoqchisiz? Bu juda barqaror va kelajagi yorqin soha” deyishdi. Ammo, men, o'z qarorimni qabul qilib bo'lgan edim. Shundan so'ng, Chirchiq davlat pedagogika

universitetining tiflopedagogika yo'nalishiga topshirdim.

Bu yerda talabalarning bilim olishi uchun keng imkoniyatlar, qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Har bir xona keng, shinam, yorug', bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlangan. Kutubxonadan brayl alifbosida yozilgan barcha kerakli adabiyotlarni topish mumkin.

Xullas, yoshlarning zamon talablari darajasida ta'lim olishi uchun barcha sharoitlar mujassam. Men o'qishni tashlab kelganimdan va bu yo'nalishni tanlaganimdan afsuslanmayman.

Guljahan MIRZALIYEVA,
CHDPning Tiflopedagogika
yo'nalishi talabasi

БОБУР БОҒЛАРИ



Замон қанча эврилмасин, миллат қонида унинг ўзигагина аён, ўзигагина тушунарли, қадрли фазилятлар яшаб қоларкан. Демак, бизнинг кўчат экиш, боғ кўкартириш, юртимизни тоза ҳаво билан яна ҳам кўркамлаштириш йўлидаги ҳаракатимиз аслида миллатимизга азалдан фазилят қилиб ато этилган бўлса, ажабмас.

Бундай деяётганимизнинг боиси, шоҳ ва шоир Мирзо Бобур ҳам боғлар барпо этишга ошуфта бўлган. Чунки у боғларни яхши кўрган ва улар унинг ҳаёти ва ҳукмронлигида муҳим ўрин тутган. «Бобурнома»да ҳам кўпинча боғлари ҳақида ёзади. Бобур боғларни нафақат дам олиш жойи, балки гўзаллик ва тинчлик рамзи сифатида тушунган. У Афғонистонда ҳукмронлик қилган даврда етти боғ, жумладан, Қобулда Боғи Шахроро, Боғи Вафо, Боғи Столиф ва Боғи Бобур боғларини яратган.

«Чорбоғи Қандаҳор», «Боғи чорбоғ» каби хуштабат, хушҳаво боғларига ўзгача меҳр берган ва уни тинчлик ва илҳом манбаи деб билган.

Бобур Ҳиндистонга кириб келгач, ўз ҳудудида шунга ўхшаш боғлар қуришга интилган. У темурийлар услубидаги чорбоғини Ҳиндистонга олиб келди. Бундай боғлардан бири Агра шаҳридаги машҳур Рам Бағҳ боғи эди. Ҳиндистондак бегона шароит, бошқа иқлимда ўнлаб боғ барпо этган.

Мирзо Бобур 1508 йилда валиаҳд фарзанди туғилиши муносабати билан Одинапур шаҳрида «Боғи вафо» боғини бунёд этишга фармон берган. Бу боғдаги кўчатлар атайлаб шоҳнинг она юртидан келтирилган. Шоҳ машваратларни, зиёфатларни шу боғда ўтказар,

боғ унга она юртини эслатиб туришини таъкидлар экан.

Бобур ўзининг янги пойтахтидаги табиий атроф-муҳитни қуйидагича таърифлайди: «Мен Агра шаҳрида Ямуна дарёси бўйида боғ яратдим, унинг марказида фаввора бўлиши учун дарахтлар экиб, сув йўллари тортдим. Иқлим билан боғлиқ қийинчиликлар мавжуд эди, лекин бу мен яратмоқчи бўлган гўзал жойнинг бошланиши эди». «Бобурнома»да шундай ёзади: «Боғ – бу ҳаётнинг бахтли томони. Агар мени қайғу ўраб олган бўлса, кўпинча боққа қараб, тинчлик топаман. У ерда гуллар орасида дунёни унутиб, табиат қўлидаги хотиржамликни ҳис қиламан».

Бобурий сулола давомчилари ҳам Лаҳор, Агра, Кашмир, Дехли қирларида кўплаб боғлар яратгани ҳақида маълумотлар бор. Юқоридагилардан кўринадики, боболаримиз инсон саломатлигини яхшилаш, манзилларни чирой ва гўзаллик билан тўлдириш учун машаққатли меҳнатга дош берган. Маълумотларга кўра, Ҳиндистон ҳамда Покистонда ҳанузгача Самарқанд номи билан машҳур бўлган узум навлари бор экан.

Бобурнинг боғлари, сув, сояли жойлар ва ўсаётган ўсимликлар билан безатилган бўлиб, унинг шахсий ҳаёти ва сиёсий мақсадлари билан боғлиқ бўлган чуқур маъноларни ўзида мужассам этган.

Шаҳримизда ҳам Заҳириддин Муҳаммад Бобур хотирасига атаб кўркам боғ ташкил этилган. У ерда ҳамшаҳарларимиз фарзандлари билан мароқли ҳордик чиқаришади. Бундан ташқари, маҳалла фуқаролар йиғинларининг бири ҳам айнан Бобур номи билан аталиши кўксимизда фахр-ифтихор туйғуларини уйғотади. 3-кичик ноҳия ҳудудида ташкил этилган «Маънавият хиёбони»да эса шоҳ ва шоирнинг ҳикматли сўзлари туширилган пешлавҳалар ўрин олган. Буларнинг барчаси буюк сиймоларимизга қаратилган эътиборнинг юксак намунасидир.

Хотираларимизга, аждодларимизга садоқат ила жипсласасак, юртимизни яшилликка буркаган бўламиз.

Назокат УМАРОВА,
Республика Маънавият ва маърифат
маркази Чирчиқ шаҳар бўлинмаси раҳбари

ИККИ БУЮК СИЙМО — КАДРИЯТ



Шу кунларда юртимизда Алишер Навоий таваллудининг 584 ҳамда Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг 542 йиллиги кенг нишонланмоқда.

Шу муносабат билан “Maxam-Chirchiq” акциядорлик жамиятида “Икки буюк сиймо” мавзусида ўтказилган адабий-бадиий анжуман буюк бобокалонларимиз ҳаёти ва ижодига бағишланди.

Тадбирда сўзга чиққан “Ўзкимёсаноат”АЖ бошқаруви раиси маслаҳатчиси Санобар Абдурахманова ҳар икки ижодкор дунё адабиёти тарихида жуда катта ўрин тутишини, халқпарвар давлат арбоби сифатида жамиятда эгаллаган юксак мавқеи жиҳатидан ҳам, илм-фан, маданият ва санъат, адабиёт аҳлига кўрсатган ҳомийлиги жиҳатидан ҳам ўхшаши йўқ сиймо эканлигини, улар бугун ўзбек халқининг миллий ифтихори, адабий, маънавий камолот тимсолига айлангани таъкидлади.

Тадбирда икки буюк сиймо ижодидан намуналар айтилиб, “Кимёгарлар” маданият саройи ансамбли ижросида куй-қўшиқлар ижро этилди.

ОҚИБАТИ АЯНЧЛИ КАСАЛЛИК

Юқумли касалликларнинг ичидаги энг хавфлиси бу – қутуриш касаллигидир.

У марказий нерв системасининг зарарланиши билан кечиб, юз фоиз ўлим билан тугайди. Қутуриш касаллиги одамларга қутурган ит, мушук, бўри ва бошқа ҳайвонлар тишлаганда, тирнаганда ва уларнинг сўлаги текканда юқиши мумкин. Қутурган ҳайвонларнинг сўлагидан кўп миқдорда касаллик вируслари ажралади ва тирналганда, шикастланганда тери орқали одамларга юқади. Қутуриш касаллигининг яширин даври 10-14 кун, 1-2 ой давом этади. Баъзида 1 йилгача чўзилиши мумкин.

Қутуриш касаллигини юқтирган беморнинг уйқуси бузилади, иштаҳаси бўғилади. Қўрқув ҳисси пайдо бўлади ва атрофга лоқайд ҳолда бўлади. Ҳайвон тишлаган жойдаги жароҳат тортишиб оғрийди, тана ҳарорати кўтарилади ва беморда кейинчалик сувдан, ҳаводан ва ёруғликдан қўрқиш аломатлари пайдо бўлади.

Ҳайвонлар тишлашидан жабрланган одамлар зудлик билан тиббий ёрдамга мурожаат этиши ва тегишли антирабик эмлашларни ўз вақтида олиши лозим.

Шундай ҳолат юз берганда, жароҳатланган, тишланган ёки тирналган соҳа оқар сувда яхшилаб ювилади, сўнгра жароҳатга 20 фоизли соевунли эритма билан ишлов берилади, кейин яна оқар сувда ювилади ва стерил салфетка билан қуритилиб, жароҳат артофига 70 фоизли спирт билан ишлов берилади. Бундай ҳолатларда зудлик билан шифохонага мурожаат қилишлари керак. Кейинги антирабик вакциналарни ўз вақтида ҳудудий поликлиникаларда олишлари зарур.

Олдинги йилларга нисбатан ҳозирги кунда бизнинг шаҳримизда ҳам дайди итлардан жароҳатланганлар жуда кўпайиб бормоқда. Шунинг учун дайди ит ва мушукларни йўқотиш, хонакиларини доимий равишда ветеринария кўригидан ўз вақтида мунтазам ўтказиб туриш ва уларни касалликка қарши эмлаш керак.

Зарифа АБДУРАМАНОВА,
Чирчиқ шаҳар Кўп тармоқли марказий
поликлиникаси ҳамшираси

Давлат ва жамият ривож, барқарор тараққиётга жиддий тўсиқ бўлиб, соҳалар юксалишига бевосита таҳдид туғдирадиган асосий иллат – бу коррупция. Бу иллат кеча ёки бугун пайдо бўлган эмас. Балки, асрлар давомида инсонга ҳамроҳ бўлиб келмоқда.

Мамлакатимизда ҳам шахслар қуйидаги миқдорда сўнги йилларда коррупцияга қарши курашиш билан рағбатлантирилади: а) коррупцияга оид маъмурий ҳуқуқбузарлик ҳақида берилган хабар учун – базавий ҳисоблаш миқдорининг уч баравари миқдорида; б) пора суммаси ёки



КОРРУПЦИЯ – БАРҚАРОР ТАРАҚҚИЁТ ДУШМАНИ

қабул қилиниб, унда давлат фуқаролик хизматчиларининг ҳуқуқий мақоми, мажбуриятлари, чекловлар ҳамда коррупциянинг олдини олишга доир чора-тадбирлар белгилаб берилди.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик ҳақида хабар берган ёки коррупцияга қарши курашишга бошқа тарзда кўмаклашган шахсларни рағбатлантириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарорининг қабул қилиниши ҳам коррупцияга қарши курашиш давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан бири эканидан далолат беради. Ушбу қарор билан тасдиқланган Низомга мувофиқ коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик ҳақида хабар берган ёки коррупцияга қарши курашишга бошқа тарзда кўмаклашган

етказилган зарар ёҳуд ўзлаштирилаётган (ўзлаштирилган) мулкнинг қиймати базавий ҳисоблаш миқдорининг ўттиз бараваригача бўлса:

ижтимоий хавфи катта бўлмаган жиноят учун – базавий ҳисоблаш миқдорининг беш баравари миқдорида; унча оғир бўлмаган жиноят учун – базавий ҳисоблаш миқдорининг етти баравари миқдорида; ўта оғир жиноят учун – базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн беш баравари миқдорида; в) қидирувда бўлган шахснинг яширинган жойи ҳақида хабар берганлиги учун базавий ҳисоблаш миқдорининг беш баравари, икки ёки ундан ортиқ қидирувда бўлган шахсларнинг яширинган жойи ҳақида бир вақтда хабар берганлиги учун эса – базавий ҳисоблаш миқдорининг етти баравари

миқдорида рағбатлантирилади.

Коррупцияга оид жиноятларни тергов қилиш ва уни фош этишда аҳамиятга эга бўлган далиллар ҳақида коррупцияга қарши курашувчи органларга хабар берган ёки бундай тоифадаги жиноятларни тергов қилиш ёҳуд тезкор-қидирув тадбирларини ўтказишда бевосита кўмаклашган шахс ташаккурнома ёки эсдалик совға билан рағбатлантирилади. Ҳатто давлат мукофотига ҳам тавсия этилиши мумкин.

Юқоридагиларни умумлаштириб шунни айтиш мумкинки, мамлакатимизда ҳам сиёсий, ҳам иқтисодий ислохотларни ҳаёtgа татбиқ этиш пайтида коррупция жиддий тўсиқ бўлаётгани жамоатчиликни ташвишга солмоқда. Шу боис, Юртбошимиз бошлаб берган жамиятнинг демократлаштириш, модернизациялаш жара-

ёнлари қийинчилик билан давом этмоқда. Коррупция жиноятларининг олдини олиш, фош этиш, уларга чек қўйиш ҳамда келиб чиқиш сабаблари ва шарт-шароитларини бар-тараф этиш бўйича олиб борилаётган ишлардан аҳолини хабардор қилиш фойдадан холи бўлмайди. Бунинг учун ҳуқуқий тарғибот ишларини тўғри йўлга қўйиш, тизим органлари фаолияти очиклиги ва шаффофлигини таъминлаш, оммавий ахборот воситалари билан алоқаларни мустаҳкамлаб, аини йўналишдаги чора-тадбирлар мазмун-моҳиятини ва натижаларини батафсил ёритиб бориш лозим.

Хусниддин САЙПИЕВ,
Чирчиқ шаҳар Адлия
бўлими бошлиғи
Бобур САҲАДДИНОВ,
Фуқаролик ишлари
бўйича Чирчиқ туманлараро
судининг судьяси



Shahrimizda joylashgan harbiy qismlarning birida «Men namunali harbiy oila bekasiman» shiori ostida «Balli, ayollar!» ko'rik- tanlovining harbiy qism bosqichi o'tkazildi.

Tadbirida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirok etdi.

Ko'rik-tanlov davomida ishtirokchilar oltita yo'nalish bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Vatan himoyasidek sharafli burchini ado etayotgan harbiylarning ayollari zukkolik va bilimdonlik, pazandalik, sportsevarlik qobiliyatlarini va milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni ulug'lashdagi mahorat va bilimlarini sinovdan o'tkazishdi.

Tadbir davomida 17 va 26-sonli umumta'lim maktabi o'quvchilari o'zlarining chiqishlari bilan tadbirga o'zgacha kayfiyat baxsh etdilar.

Eng yuqori natija ko'rsatgan Sanatxon Usmonjonova 1-o'rinni egallab, tanlovning keyingi bosqichiga yo'llanma oldi.

G'olib va sovrindorlar harbiy qism tomonidan diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Maxfira ALLABERGANOVA,
Harbiy qismning Xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassisi



Aholi farovonligi hamda bozorlar to'kin-sochinligini ta'minlashda tomorqadan unumli foydalanishning o'rni katta. Axir xalqimizda "Yer xazina, tuproq oltin" degan dono gap bor. Unga bor mehringni bersang, e'zozlasang, sendan sahovatini ayamaydi, rizq-nasiba beradi.

Shahrimizda ham tomorqasini obod qilib, mahallasiga fayz qo'shayotgan, ro'zg'origa baraka kiritayotgan oilalar ko'p. "H.Maqsudov", "Ma'rifat", "Mir Alisher" mahallalarida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar orqali aholi bandligini ta'minlash, daromadini oshirishda ijobiy natijalarga erishilmoqda. Ushbu mahallalarda 2 912 ta xonadonning tomorqa maydoni 47 gektarni tashkil etib,

bugungi kunda 17,6 gektar maydonida sabzavotchilik va issiqxonalarda limonchilik faoliyati yo'lga qo'yilgan. Buning natijasida, aholi tomorqasidan yetishtirilishi kutilayotgan mahsulotlardan 210 million so'm qo'shimcha daromad bo'lsa, 29,4 gektar maydonga ekilgan sabzavot va poliz mahsulotlaridan 45 tonna hosil yetishtirish orqali 175 mln so'm daromad olish mo'ljallangan.

Chirchiq shahar Axborot xizmatidan olindi



O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida "Universiada-2025" sport musobaqalarining badminton bo'yicha Respublika final bosqichi bo'lib o'tdi.

Ikki kun davom etgan musobaqalarda respublikaning barcha hududlaridan kelgan 120 ga yaqin sportchilar yakkalik, juftlik hamda aralash dasturlarda g'oliblik uchun shiddatli bahs olib bordilar. Umumjamoa hisobida esa 1-o'rinni Toshkent viloyati jamoasi qo'lga kiritdi. 2-o'rin –

eraklar o'rtasida kechgan bahslarda 2-o'rinni, juftlik dasturida erkaklar o'rtasida hamda ayollar o'rtasidagi musobaqalarda 1-o'rinni qo'lga kiritdilar.

Musobaqa yakunida tashkilotchilar tomonidan g'olib va sovrindorlarga tantanali ravishda medal, diplom hamda qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti axborot xizmati

OTALAR AZIZ, ONALAR AZIZ

Rayhon iforiga to'lgan hovlida,
Oq ro'moli boshda onalar aziz.
G'urur, oriyati belida mahkam,
Boshga do'ppi kiygan otalar aziz.

Millat otalari, onalari kim?
Ular O'zbekoyim, Yusuifbek hoji!
Muqaddas sanalgan oila – qo'rg'on,
Jannatlarga eltgay tarbiya toji.

Bobo-yu buvilar uyimiz fayzi,
O'git-nasihati yo'limizga nur.
Mas'uliyat yukin olib yelkaga,
Ajodlarga loyiq bo'lmoq kerakdir!

Dono MASHARIPOVA,
7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi direktorining Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari



TONG MANZARASI

Daraxt tepasida bir jaffi qushcha,
Shirin ovozi-la chirqillab qo'ydi.
Mahliyo bo'lib u o'z ovoziga,
Go'zal qo'shig'idan bir shodlik tuydi.

Shu kuyni kutgandek bir sarrin shamol,
Uchqur tulporida keldi yugurib.
Zumrad yaproqchalar olqishlab uni,
Raqsga tusha ketti chunon charx urib.

Shu damda shafaqdan qizg'ish nur yonib,
Bir saxiy mo'jiza ko'taradi bosh.
Butun borliqqa u bag'rini ochib,
Olamga mehriini sochadi quyosh.

Qqrang, bu tabiat naqadar go'zal,
Bir yonda gullaru, bir yonda ash'or.
Aslida men emas haqiqiy sho'ir –
Bu go'zal olamda tengsiz sehr bor.

Laylo HAMROYEVA,
7-maktab o'quvchisi

SAMIMIY QUTLOVLAR

"Maxam-Chirchiq" AJ
boshqaruvi va kasaba qo'mitasi
Mehnat faxriylari
Tuxbatulina Lidiya Nikolayevnani 75,

Umarov Sobirjon Hamdamovich,
Yermetova Maksuma Muminovna
hamda Kuzdibayeva Roza
Uzakbayevani 70 yoshlari
bilan samimiy qutlaydi va
ularga sihat-salomatlik, oilaviy
osoyishtalik hamda shod-u
hurramlik tilaydi.

DONOLAR BISOTIDAN

Sabr – insonni maqsadiga
eng tez olib boradigan yo'l
ko'rsatuvchidir.

Jaloliddin RUMIY
Turli-tuman tarbiyaviy
hikoyalar va hikmatli
so'zlarni to'plash tengsiz
davlatdir.

GYOTE
Bilim bilan saodat yo'li
ochiladi, shunga ko'ra, ilmi
bo'l, baxt yo'lini izla.

Ahmad YUGNAKIY
Naf'ing agar beshakdurur,
Bilki, bu naf' o'zingga
ko'prakdurur.

Alisher NAVOIY

CHIRCHIQTONGI

Muassis:

Toshkent Viloyati Chirchiq Shahar
HOKIMLIGI



"Chirchiq tongi" gazetasi tahrir hay'ati:

Murodjon ABDURAHIMOV
(tahrir hay'ati raisi)
Hotamjon SAYDAHMEDOV
G'afurjon MUHAMEDOV
Shavkatbek MAMAJONOV
Ibrohim HASANOV
Saodat MUSAYEVA
Ilhom ASADOV

Bosh muharrir:

Iroda
MUHAMMAZIZOVA

Gazetaga 1932-yilda asos solingan

2011-yil 22-avgustda Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 03-024 raqam bilan ro'yxatga olingan

Manziliimiz: 111700,
Toshkent viloyati, Chirchiq shahri,
Amir Temur ko'chasi, 1-uy, 409,
410, 411 va 412-xonalar

Adadi: 3000 nusxa.
Hajmi - 1,5 bosma taboq.
Qog'oz bichimi A-3. Ofset usulida bosilgan. Bahosi kelishilgan narxda
ISSN 2181-7170

Telefonlar:
Qabulxona:
70-71-5-36-40.
E'lonlar va hisob-kitob bo'limi:
70-71-5-00-14
Nashr indeksi: 64694

Topshirish vaqti-13.00.
Topshirildi-14.00.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida
Xatira YUSUPOVA
tomonidan sahifalandi

Navbatchi:
Malika RISKIDINOVA

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Reklama materiallaridagi dalillar va faktlarga tahririyat javobgar emas

«NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili:
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,
Mash'al mahallasi, Markaziy ko'cha, 1-uy.
Buyurtma №